

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'rni	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsional ta'siri	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOVA. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'rni	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жителей Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi	103
Jo'rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqa muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения	108
Jo'rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo'rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash	122

Zarnigor ALAYEVA

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
san'atshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

YOSHLARNI MUSIQA TA'LIMI ORQALI MILLIY ISTIQLOL G'OYALARI RUHIDA TARBIYALASH

Ushbu maqolada yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash va talabalarni "G'oyaviy-estetik tarbiya"lash tushunchasi hamda ma'naviyat manbalari va sarchashmalari bo'lgan madaniy merosni istiqlol mafkurasining asosiy manbalaridan biri sifatida qarash, bu merosni ilmiy pedagogik o'rganish hamda ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: g'oyaviy estetik tarbiya, badiiy-estetik muloqot, ommaviy madaniyat, jamiyat ma'naviyati, aforizm, qoloqlik, madaniyatsizlik.

В данной статье концепция воспитания молодежи в духе национальной независимости через музыкальное воспитание и концепция «идейно-эстетического воспитания» и культурного наследия как источника духовности выступает одним из основных источников идеологии независимости. педагогическое воспитание и воспитание духовно гармоничной личности, совершенствование системы образования и духовно-духовное воспитание нового поколения.

Ключевые слова: идейно-эстетическое воспитание, художественно-эстетический диалог, народная культура, народная духовность, афоризмы, отсталость, некультурность.

In this article, the concept of educating young people in the spirit of national independence through music education and the concept of "ideological and aesthetic education" and the cultural heritage as a source of spirituality is one of the main sources of the ideology of independence. pedagogical upbringing and upbringing of a spiritually harmonious person, improvement of the education system and upbringing of a new generation spiritually and spiritually.

Key words: ideological aesthetic education, artistic and aesthetic dialogue, popular culture, public spirituality, aphorisms, backwardness, uncultured.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Abdurauf Fitratning "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq", – degan fikrni ilgari suradi: "Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar!" deb baholadi. Prezident ushbu pedagogik fikrlar ahamiyatini baholab, shunday dedi: "Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "Ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi".

Asosiy qism. XX asrning boshida yashab, ijod qilgan ma'rifatparvar ajdodlarimiz san'atning inson tarbiyasida tutgan roli, milliy san'atimizni asrab-avaylash, yoshlarni ularga oshno qilishga alohida e'tibor qaratishgan. "San'at – axloqiy g'oyaning ifodasidir. Bu ta'rif ham eski zamonning, burung'ilarning ta'rifi bo'lib, bu ham tom bir ta'rif emas. Chunki axloqdan tashqari bo'lg'on ko'p go'zal san'at asarlari bordirki, bizning yuraklarimizda ajib-ajib to'lqinlar, badiiy hayajonlar tug'dirg'onliklari uchun bulargina go'zal san'atdan hisob qilinishqa haqlikdirlar. San'at ko'z bilan ko'rila olmog'on narsalarni surat qilib anglanishdan iboratdir".

"Dostonlar kuylanganida kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida milliy g'urur tuyg'usi yuzaga keladi. Shunday ma'naviy muhit ta'sirida o'quvchi hamda tinglovchilar ong-tafakkuri shakllantiriladi. Dostonlar xalq idealidagi tushuncha va tasavvurlarni, ijtimoiy-siyosiy voqealarni badiiy uslubda bayon etish bilan birga, ularda xalqning ma'naviy dunyosi, maishiy hayoti, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik va tenglik uchun kurashlari, Vatanga bo'lgan muhabbati va sadoqati o'zining badiiy ifodasini topadi".

Ushbu fikrlar yoshlarni, ayniqsa, bo'lajak ziyolilar – oliy ta'lim muassasalari talabalarini g'oyaviy-estetik tarbiyalashda yangi, amaliy vazifalarni belgilab berdi. Zero, shu paytgacha bizga xuruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar qatorida "Ommaviy madaniyat" tahdidi bu darajada qayd qilinmagan va ma'naviy-

axloqiy tarbiya rejalarida alohida belgilanmagan. Ushbu tahdidning pedagogik nuqtayi nazardan o'rganilmaganligi, to'g'ridan-to'g'ri talaba yoshlarning g'oyaviy-estetik dunyoqarashiga qaratilganligi sababli ommaviy madaniyatning mohiyati, uning yoshlar madaniyati va ma'naviyatiga ta'sirini pedagogik talqin qilishni alohida masala sifatida belgilab olindi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar jamiyat tafakkurini yangilashga qaratilgan milliy, shu jumladan, badiiy-estetik qadriyatlarni tiklashni va o'rganishni hamda xalq ichiga yoyishni, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirishga kuchli turtki berdi.

Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni yoshlar bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidagi: "Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg'unlash g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir" – degan fikrlari oliy o'quv yurtlarida badiiy to'garaklar ishini tashkil qilish yo'nalishlarini belgilashda dasturiy ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb e'lon qilindi. Vaholanki, hech bir mamlakatda ma'naviyat mustaqil soha sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilmagan va unga bunchalik ahamiyat berilmagan. Ma'naviyatni takomillashtirish, ma'naviy sohaga g'amxo'rlik davlatimizning strategik maqsadiga aylandi. Bu Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat o'n qadam oldinda yurishi kerak", – degan mashhur iboralarida belgilab berildi.

Ma'naviy islohot ma'naviyat manbalari va sarchashmalari bo'lgan madaniy merosni istiqbol mafkurasining asosiy manbalaridan biri sifatida qarash bilan birgalikda, bu merosni ilmiy pedagogik o'rganish, uning hozirgi davr uchun nihoyatda ahamiyatli ekanligini nazarda tutadi. Shu bilan birgalikda, ma'naviy soha milliy qadriyatlarni tiklash, ularni to'plash, o'rganish, xalqqa yetkazib berishni ma'naviy siyosatning poydevoriga aylantirish kabi jihatlarni ham qamrab oladi.

"Ma'naviy tiklanish – fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziyolilarning paydo bo'lishi, demakdir. Bizning tushunishimizcha, qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish - o'z tarixiy yo'nalishimizdan voz kechish, degani emas. Bu biryozlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir. Ma'naviy islohotlar, odamlar ongini o'zgartirish oson kechmayapti. Bu esa respublika rahbariyati tomonidan yoshlarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash masalasini qayta-qayta kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'ldi. Shu bois ham, Prezidentimizning milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish zarurligi to'g'risidagi fikrlarini amaliyotga joriy etish pedagogikaning dolzarb vazifasidir.

Ijtimoiy-siyosiy islohotlar yangi bosqichga kirganida bu jarayonlarni o'rganuvchi ilmiy yo'nalishlar ham o'zgarib, yangilanadi. Hozirgi vaziyat barcha ijtimoiy sohalarida bo'lgani kabi yosh avlodlar tarbiyasida ham ilmiy va milliy tamoyillar uyg'unligini taqozo qilmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun ma'naviyat, tarbiya masalalarini o'rganuvchi, o'zgartiruvchi yangi yondashuvlar zarur.

Jamiyat ma'naviyati – ijtimoiy tarbiya va ma'rifat mahsulidir. Ma'naviy tarbiya an'analarning davom ettirilishi milliy badiiy qadriyatlarni tiklab, ajdodlarni yuksak ma'naviy ijodkorlikka undagan pedagogik mexanizmni ishga tushiradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning jo'shqin, barqaror ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

"G'oyaviy-estetik tarbiya" tushunchasi O'zbekistonda siyosiy, fundamental va amaliy ahamiyatga ega. Unda ijtimoiy-ma'naviy hayotni ilmiy asosda o'rganish, isloh qilish mexanizmini belgilashda davlat siyosati uchun foydali katta amaliy imkoniyatlar mavjud. Masalaning fundamental mohiyatiga uning: insonning ikkinchi signallar sistemasiga asoslanishi; pedagogika, psixologiya, ma'naviyat asoslari, milliy istiqbol g'oyasi, axloqshunoslik, sotsiobiologiya, kulturalantropologiya kabi fanlar nuqtai nazarlaridan ochib berilishi, dinlararo bag'rikenglik bilan bog'lanishi, ma'naviy siyosatning ijtimoiy pedagogik tahlil qilinishi va mustaqil davlatchilikning shakllanishida milliy ma'naviyat rolining ochib berilishi boshqalar taqozo qilinadi. Chunki bu ko'p millatli mamlakatda istiqomat qiluvchi turli xalqlarning qadimgi va zamonaviy madaniyatlarini integratsiya qilish uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir xalqning badiiy-estetik an'analari bir-birini boyitib, tabiiy ravishda O'zbekiston xalqining rivojlangan umummilliy madaniyati xazinasiga qo'shiladi.

Muhokamalar va natijalar. Oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi – davlatchilikning strategik maqsadlariga xizmat qiladi. Ya'ni, ham milliy, ham jahon madaniyati va san'atidan xabardor O'zbekiston yoshlarining yangi avlodi Sharq va G'arb sivilizatsiyalari hamkorligini mustahkamlashga tayyorlab boriladi. Bu fazilatlarining uyg'un shakllantirilishi xalqning umummilliy birligi mustahkamlanishiga yordam beradi. Ya'ni, diniy e'tiqodlar, tillar, an'analardagi farqlar insonlarni yagona Vatan, uning taqdiri, tarixi, bugungi muammolarini hal etish va kelajagi buyuk davlat bunyod etish kabi umumiy maqsad yo'lida birlashtiradi. Bu esa pedagogika fanining jamiyatda "Ommaviy madaniyat", loqaydlik, Vatan taqdiriga befarqlik, milliy qadriyatlardan begonalashuv kabi milliy xavfsizlikka

tahdidlarning oldini olish, mamlakatda nafaqat talaba-yoshlar, balki butun jamiyatni ma'naviy yangilash, odamlar tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida strategik, ijtimoiy-siyosiy qimmatga egadir.

Sobiq sho'ro davri siyosatining asoratlari san'at va madaniyat sohalarida ham uchramoqda. Madaniyat sohasida uzoq yillar xizmat qilgan, "Shuhrat" medali nishondori T.Mustafoqulov bu haqda shunday deydi: "Shaxsan o'zim o'tkazgan kichik tadqiqotdan shunday xulosa qildim: hozirgi 30 yoshli, va hatto oliy ma'lumotga ega ziyoli deb nomlanadigan o'zbeklarning ko'pchiligi M.Uzoqov, J.Sultonov F.Umarov kabi zabardast siymolarni bilmaganlari holda, Notilius Pompilius guruhi, Maykl Jekson, Alla Pugachovalarning nima yeyishi, fe'l-atvori, qo'shiqlarini yaxshi bilishadi. Konsertlarda, to'y-tomoshalarda aytilayotgan qo'shiqlar kuyi, usuli, she'r mazmuni bachkanalashib bormoqda. Eng dahshatlisi shuki, bunday sayoz, bachkana qo'shiqlar yoshlarning sevimli qo'shiqlariga aylanmoqda. Nahotki, donishmand Arastuning "Tinglovchilarga o'zlarining shaxsiy fikrlarini, o'ylarini ifodalovchi iboralar (aforizmlar) yoqadi", – degan fikri tasdiqlanayotgan bo'lsa? Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyeva yoshlarning milliy madaniyat va san'atga munosabatini bevosita tarbiya bilan bog'lab talqin qiladi: "Bugun ko'plab miqdorda yengil-yelpi asarlar bitilayotgan, maza-matrasini yo'q qo'shiqlar yozilayotgan, oldi-qochdi kinolar yaratilayotgan ekan, demak, bunday "Adabiyot" va "San'at"ga jamiyatda ehtiyoj bor. Odam kitobni o'ziga yoqqani uchun o'qiydi, qo'shiqdan zavqlangani uchun eshitadi, tomoshalardan bahra olgani uchun ko'radi. Inson tabiatan qanday janrdagi kitobni o'qishga moyil bo'lsa, shunday asarni qidiradi, qanday san'at namunasini tinglashga, ko'rishga ishtiyoqi bo'lsa, undan o'ziga kerakli nimalarnidir oladi. Bu uning ichidagi "Men"ga bog'liq. Hamma gap ana shu "Men"ning qanday tarbiyalanganida".

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy-badiiy pedagogik faktlarning o'zi ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ijtimoiy-siyosiy asosga ega ekanligini isbotlash uchun yetarli deb hisoblaymiz. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar esa mana shu muhim masalani amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Bu jarayonning g'oyaviy-tarbiyaviy mazmuni, uslub, vositalarini ma'naviyat bilan boyitib, shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi insoniy fazilatlar – tavoze, hayo, vijdon, imon va boshqalarni faollashtirib, milliy ma'naviyatni yuksak cho'qqilarga ko'taradi. Xalq tarixining keyingi asrlarida sodir bo'lgan mustamlakachilik, milliy fazilatlarini "Qoloqlik", "Madaniyatsizlik", "Eskilik sarqiti" deya qadrsizlantirilishi muayyan mustamlakachilik siyosati ifodasi bo'lib, yuqoridagi tushunchalar mohiyatini yosh avlod tafakkurida ma'lum darajada mavhumlashtirdi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar esa mazkur tushunchalarni yangicha, milliy manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib yosh avlodga singdirishga xizmat qiladi.

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi, yangi bosqichida fuqaroni, xususan, talaba-yoshlarni milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalashning ahamiyati tobora oshmoqda. Shu bois, oliy o'quv yurtlarida madaniy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash, isloh qilish – O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlashning muhim shartlaridan biri deb e'tirof qilmoq kerak. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda "Ommaviy madaniyat"ning ta'siri natijasida ayrim yoshlarda millatga, vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissini shakllantirishdagi pedagogik muammolar tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'kis hayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim talabalar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi tufayli yot g'oyalarga aldanish, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik, so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'ururning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularning sabablarini ilmiy asosda o'rganib, bartaraf qilish lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini aniqlashda dunyo miqyosida kechayotgan moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ekologik jarayonlar va ularning umuminsoniy sivilizatsiyaga, ma'naviyat va madaniyat ta'siriga bag'ishlangan qarashlar muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston san'at arbobi, olim, munaqqid I.G'afurov globallashuvning ijobiy va salbiy ko'rinishlari, ularning u yoki bu mamlakat xalqi ma'naviyatiga ta'siri, umuminsoniy, universal ma'naviy birlikka erishish globalizatsiyaning vazifalaridan biri bo'lmog'i kerakligi haqida shunday yozadi: "...ma'naviy dunyoning birligi, unda istiqomat qilayotgan xalqlar, millatlar, etnik kam sonli elatlarning harakat birligini taqozo qiladi. Irq, millat, e'tiqod, chegara tushunchalari ko'pirtirilsa, birlik yo'qoladi. Bolqon, Yaqin Sharq, Osiyo, Afrikadagi singari oxiri ko'rinmas fojiali nizolar biri ketidan biri kelib chiqaveradi. Bu nizolarni keltirib chiqarayotgan sabablar qashshoqlik, qaramlik va jaholatdir. Yer yuzining bugungi va ertangi ob-havosi, yashash sharoitlari, umuman, hayotning ma'rifiy davomiyligiga tahdid solayotgan qashshoqlik, giyohvandlik, alkogolizm, johillik, terrorizm, turli ko'rinish va niqobdagi aqidaparastliklarga qarshi kurashda globalizatsiya harakatlarining ochiqligi va o'zaro muvofiqligi hamda birligiga qo'l keladi va faqat shular bilangina nizolarga qarshi pozitiv natijalarga erishmoq mumkin.

Harakatlar birligi mavjud bo'lganda, barcha odamlar uchun birday qimmatli universal axloq yuzaga chiqadi va shakllanadi. Globalizatsiyalashuv nuqtayi nazardan bozorlar yoki tovarlarni intensiv ayrboshlashgina bo'lib qolmay, shu bilan birga, u yorqin axloqiy jarayon hamdir".

Ana shu universal axloqning yuzaga kelishida, jamiyat ma'naviyatini isloh qilishda pedagogika fani eng muhim ijtimoiy tarbiyaviy vazifalarni bajarishi zarur. Chunki targ'ibot g'oyaviy-estetik tarbiya ma'naviy-ma'rifiy ishlarining muhim yo'nalishidir. Shu bois, yoshlarni yot ta'sirlardan asrashda san'at va madaniyatning rolini yanada oshirish talab etiladi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida, talabalar tarbiyasining tubdan isloh qilinishi yaqin kelajakda mamlakat ziyolilarining, rahbar kadrlarning ma'naviyati, g'oyaviy qarashlari, mafkuraviy immunitetlarida ijobiy tarzda namoyon bo'ladi. Bu esa ular orqali butun jamiyatning ma'naviy takomillashuviga, O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirish samaradorligiga kuchli ma'rifiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. -T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMU, 2017. – 45 b.
3. Abdurahmon A. Sa'diy. Go'zal san'at dunyosida /Inqilob, 1922. – 2-son.
4. Irzayev A.B. O'zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan. – T.: "Akademnashr", 2017. 160 b.
5. Husanboyeva A. Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashriyoti, 2009. – 365 b.
6. Алаева Зарнигор Махмудовна ПЕДАГОГИКА КАК НАУКА И ИСКУССТВО ВОСПИТАНИЯ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogika-kak-nauka-i-iskusstvo-vospitaniya> (дата обращения: 18.01.2022)
7. Аллаева Зарнигор Махмудовна ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕСЕН И ТАНЦЕВ // Наука, техника и образование. 2021. №2-1 (77). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/esteticheskoe-vospitanie-doshkolnikov-s-pomoschyu-pesen-itantsev> (дата обращения: 18.01.2022).. 5.
8. Зарнигор Максудовна Алаева, Садокат Руслановна Шамсиева КОШИК ТУШУНЧАСИ В.А. УНИНГ ИНСОН ХАЙОТИДА ТУТГАН О'РНИ ХАМДА ХОНАНДАЛИК ЙДЖРОЧИЛИГИ ТАРИКИ // Научный прогресс. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qo-shiq-tushunchasi-va-uning-inson-hayotida-tutgan-o-rni-hamдахonandalik-ijrochiligi-tarixi> (дата обращения: 18.01.2022).
9. Рахимов Равшан Наимович СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ МУЗЫКИ // Наука, техника и образование. 2021. №2-2 (77). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-razvitiya-navykov-ponimaniya-muzyki> (дата обращения: 18.01.2022).
10. Равшан Наимович Рахимов В общих областях теории и гармонии музыки приёмы, методы и информационные технологии // Science and Education. 2021. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/v-obschih-oblastyah-teorii-i-garmonii-muzyki-priyomy-metody-i-informatsionnye-tehnologii> (дата обращения: 18.01.2022).
11. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. International Engineering Journal For Research & ..., 2020. <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1244>
12. Ibadullaeva Shakhnoza Ilkhamovna. (2021). Development of Fine Art of Uzbekistan in The Middle f XX Century. Middle European Scientific Bulletin, 9. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.9.210>
13. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of" Buchof'Tune //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – С. 118-122. 11. Ярашев Ж. Т. Songs of composite cycles of and mavrichi as musical values for uzbek people //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – Т. 2. – С. 64. 12. Журабек Тураевич Ярашев МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya> (дата обращения: 18.01.2022).
14. Ярашев Ж. Т. Songs of composite cycles of and mavrichi as musical values for uzbek people //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – Т. 2. – С. 6